

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–iyun oylarida

RAQAMLAR:


- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **752 taga o'sdi**.
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,7% ga o'sdi**.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1670 taga oshgan**.

2018 yilning yanvar-iyun oy-
larida viloyatda 2403 ta korx-
ona va tashkilotlar yangi faoliyat
ko`rsatayotgan korxona
tashkil etildi, bu esa o'tgan va tashkilotlar soni 1753 ta
yilning shu davriga nisbatan (8,3%) ga o'sgan hamda ular-
ning umumiy soni 22814 tani
tashkil etgan.

Shuningdek, faoliyati tu-
gatilgan korxona va tash-
kilotlarning soni o'tgan yilning
onalar shu davriga nisbatan 37,2 % ning asosiy ulushi Samarqand
ga kamaygan hamda ular shahri (31,7%) Urgut (9,2 %),
ning soni 733 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko`rsatayotgan korx-
ona va tashkilotlar
qand (6,8%) tumanlarda kuza-
tilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda



***Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Jami	24199	100,0	22814	100,0
Samarqand sh.	7678	31,7	7246	31,7
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar	852	3,5	832	3,6
Oqdaryo	924	3,8	879	3,8
Bulung'ur	902	3,7	853	3,7
Jomboy	794	3,2	755	3,3
Ishtixon	1203	4,9	1110	4,8
Kattaqo'rg'on	1117	4,6	1032	4,5
Qo'shrabot	552	2,2	535	2,3
Narpay	879	3,6	853	3,7
Payariq	1306	5,3	1216	5,3
Pastdarg'om	1916	7,9	1741	7,6
Paxtachi	619	2,5	570	2,4
Samarqand	1676	6,9	1568	6,8
Nurobod	670	2,7	602	2,6
Urgut	2157	8,9	2105	9,2
Tayloq	954	3,9	917	4,0


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,2 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,8 % ni tashkil etgalligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,6 % ga kamayganini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 22,4 % savdoda, 18,3 % sanoatda, 8,5 % qurulishda, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,2 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,7 % axborot va aloqa va 30,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyun oylarida 2403 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 11,2 % ga ko'pdir. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar eng ko'p Samarqand shahrida (724 ta), Samarqand tumani (211 ta), Pastdarg'om tumani (168 ta) va Kattaqo'rg'on shahrida (126 ta) tashkil etilgan. Eng kami Paxtachi (64 ta), Narpay (43 ta) hamda Qo'shrabot (64 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (506 ta), savdoda (488 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (324 ta) va qurilishda (305 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (38 ta), tashish va saqlashda (53 ta) hamda sog'linqi saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (65 ta) tashkil etilganligi kuzatilmogda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyun oylarida.	2018 yil yanvar-iyun oylarida.
Jami	2160	2403
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	287	324
Sanoat	613	506
Qurilish	186	305
Savdo	457	488
Tashish va saqlash	68	53
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	253	246
Axborot va aloqa	53	38
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	50	65
Boshqa turlari	193	378

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi boshqa turlarida (-2,3 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (+0,2 f.p.) va axborot va aloqa (-0,2 f.p.), savdo (-0,5 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,0 f.p.), qurulish (0,6 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,7 f.p.), hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,6 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz bandda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.07.2018 y.	01.07.2017 y.	farqi (+ -)
Boshqa turlari	30,2	32,5	-2,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	2,0	0,2
Axborot va aloqa	1,6	1,8	-0,2
Savdo	22,4	22,9	-0,5
Tashish va saqlash	3,2	3,2	0,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,1	6,5	0,6
Qurilish	8,4	7,8	0,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	5,5	0,7
Sanoat	18,3	17,3	1,0

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyul holatiga 17762 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4628 ta, oilaviy korxonalar – 1986 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10643 ta, aksiyadorlik jamiyatları – 29 tani va boshqalar 505 tani tashkil etadi.



AKSIYADORLIK JAMIYATI



**"O'ZBEKENERGO"
AKSIYADORLIK JAMIYATI**




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning tashkili huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 335 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 63 taga yoki 23,1 % ga o'sgan. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 253 tasi qo'shma korxonalar, 82 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 177 ta (52,8 %) ga, Urgut tumanida 37 ta (11%) ga va Jomboy tumani 25 ta (7,4 %) ga hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot tumanida 1 ta (0,3 %) ga, Kattaqo'rg'on tumanida 1 ta (0,3 %) ga, Payariq va faqat Narpay tumanlarida 3 tadan (0,9 %) ga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'p sanoatda 214 ta (63,8 %), savdoda 46 ta (13,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 24 ta (7,1 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 20 ta (5,9 %)ni tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (0,9 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va tashish va saqlashda 4 ta (1,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 8 ta (2,4 %) hamda qurilishda 12 ta (3,6 %) ni tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turi bdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyun oylarida 59 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga ko'paygan yoki 2,4 martaga oshgan.


Bunda, Turkiya Respublikasi bilan – 12 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Koreya Respublikasi – 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 6 ta va Ukraina bilan – 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyun oylarida) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radian bo'lsak, asosan sanoatda 20 ta, savdoda 14 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9 ta, qurilishda 9 ta va boshqa faoliyat turlarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 17649 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 11,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6039 tasi (34,2 %) Samarqand shahriga, Urgut tumani, 1684 tasi (9,5 %), Pastdarg'omda, 1302 tasi (7,3 %) va Samarqand tumani, 1304 tasi (7,3%) hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar 5078 taga (28,7%) – savdoda, 4144 tasi (23,4 %) - sanoatda, 1936 tasi (10,9 %) - qurilishda, 1594 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1358 tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 711 tasi (4,0 %) tashish va saqlashda, 369 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 416 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2003 tasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyun oylarida 2181 ta kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,8 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahrida (684 ta), Samarqand tumanida (204 ta), Urgut tumanida (157 ta), Pastdarg'om tumanida (146 ta), Kattaqo'rg'on shahrida (110 ta), Payariq tumanida (122 ta), eng kam esa Paxtachi tumanida (35 ta), Narpay tumanida (48 ta), Qo'shrabot (56 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (506 ta), savdoda (488 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (324 ta) va qurilishda (305 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (38 ta), tashish va saqlashda (53 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (65 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 iyul holatiga ko'ra 2063 tani tashkil etib, ulardan 1986 tasi yoki 96,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **39,1** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 33,8 % yoki 671 tasi sanoat, 27,2 % yoki 542 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,1 % yoki 361 tasi savdo, 9,4 % yoki 186 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 22 tasi qurilish, 1,7 % yoki 33 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 17 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 6 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,6 % yoki 148 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Samarqand viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **F.Zulfuqorov**
(0371) 230-85-42,43



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**